

TILSHUNOSLIKDA SO‘Z O‘ZLASHISHI HODISASI: TASNIFI, MOSLASHUV MEXANIZMLARI VA OMILLARI

Baxbergenova A. Sh

Qoraqolpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tilshunoslikda so‘z o‘zlashishi tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda lingvistik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. O‘zlashma so‘zlarning ta’rifi va tasnifi yoritilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmalar, kalkalar, gibrid birliklar va internatsionalizmlar xususiyatlari izohlanadi. Shuningdek, o‘zlashmalarning fonetik, morfologik, semantik va madaniy moslashuv mexanizmlari ilmiy manbalar asosida ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zlashish jarayoniga ta’sir etuvchi sotsiolingvistik, psixolingvistik va global omillar ham tahlil qilinib, so‘z o‘zlashishining til taraqqiyotidagi o‘rni asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *so‘z o‘zlashishi, leksik o‘zlashma, fonetik moslashuv, semantik transformatsiya, lingvokulturologiya.*

Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda doimiy ravishda rivojlanib boruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Til tizimining eng dinamik qatlamlaridan biri leksik qatlam bo‘lib, u jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy o‘zgarishlarni bevosita aks ettiradi. Shu jihatdan so‘z o‘zlashishi jarayoni til taraqqiyotining muhim mexanizmlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. So‘z o‘zlashishi tillararo aloqa natijasida bir tilga mansub leksik birliklarning boshqa til tizimiga kirib kelishi va u yerda fonetik, morfologik, semantik hamda pragmatik jihatdan moslashuvi jarayonidir. Ushbu hodisa til aloqasi nazariyasining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda o‘zlashish jarayoni ko‘p qirrali hodisa sifatida baholanib, u faqat leksik almashinuv emas, balki madaniy va konseptual transformatsiya jarayoni sifatida ham talqin qilinmoqda.

Globalizatsiya jarayonining kuchayishi, xalqaro iqtisodiy va madaniy integratsiyaning kengayishi natijasida tillar o‘rtasidagi aloqa intensivligi sezilarli darajada ortdi. Natijada o‘zlashma birliklarning hajmi va dinamikasi ham oshdi. Xususan, ingliz tilining xalqaro kommunikatsiya vositasi sifatida ustun mavqega ega bo‘lishi ko‘plab tillarning leksik tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa so‘z o‘zlashish jarayonini zamonaviy tilshunoslikning dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylantiradi. Til aloqasi nazariyasi doirasida so‘z o‘zlashishining mexanizmlari, intensivligi va oqibatlarini keng o‘rganilgan. S. G. Thomason va T. Kaufman til o‘zgarishining asosiy omillarini ijtimoiy aloqa intensivligi bilan bog‘lab, o‘zlashish jarayonini strukturaviy transformatsiyalar bilan birga tahlil qilganlar. P. Muysken esa o‘zlashish iyerarxiyasini ishlab chiqib, leksik birliklarning funksional birliklarga qaraganda osonroq o‘zlashishini ilmiy asoslagan. Ushbu nazariy qarashlar so‘z

o'zlashishining til tizimidagi o'rini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, lingvokulturologik yondashuv so'z o'zlashishini yangi ilmiy nuqtayi nazardan talqin qilish imkonini bermoqda. Bu yondashuvga ko'ra, o'zlashma so'zlar faqat nominativ birlik emas, balki ma'lum bir madaniy kod, mentalitet va konseptual modelni tashuvchi vosita hisoblanadi. Shu sababli so'z o'zlashishining dolzarbligi nafaqat lingvistik, balki kulturologik va sotsiolingvistik jihatdan ham muhimdir.

Zamonaviy davrda til taraqqiyoti jarayonlari axborot texnologiyalari, internet va ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivoji bilan chambarchas bog'liq. Ilm-fan va texnologiya sohasidagi yangi tushunchalar, iqtisodiy terminlar, ijtimoiy hodisalar va madaniy realiyalar ko'pincha xalqaro miqyosda tez tarqaladi. Bu jarayon leksik tizimda o'zlashmalarning keskin ortishiga olib keladi. So'z o'zlashishi zamonaviy til jarayonlarida bir necha funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u leksik bo'shliqni to'ldirish vositasi hisoblanadi. Yangi tushuncha yoki predmet paydo bo'lganda, qabul qiluvchi til ko'pincha mavjud birliklar bilan ifodalashdan ko'ra, tayyor chet til so'zini o'zlashtirishni afzal ko'radi. Ikkinchidan, o'zlashma birliklar ijtimoiy prestij va identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Ba'zi hollarda o'zlashma so'zlardan foydalanish zamonaviylik, innovatsionlik yoki global madaniyatga yaqinlik belgisi sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy tilshunoslikda o'zlashma so'zlarning faqat leksik darajada emas, balki fonetik, morfologik va semantik tizimga ta'siri ham o'rganilmoqda. O'zlashma birliklar qabul qiluvchi til fonologik tizimiga moslashadi, grammatik affikslar orqali integratsiyalanadi va vaqt o'tishi bilan mahalliylashadi. Bu jarayon tilning ichki strukturaviy barqarorligini saqlagan holda uning ochiq tizim ekanini namoyon etadi. Bundan tashqari, o'zlashma so'zlar madaniy transformatsiya jarayonining ham muhim elementi hisoblanadi. Har bir o'zlashma birlik qabul qiluvchi madaniyatda qayta talqin qilinishi, yangi konnotativ qatlam kasb etishi yoki mavjud konseptual maydonni kengaytirishi mumkin. Shu jihatdan so'z o'zlashishi til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini aks ettiruvchi hodisadir. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tilshunoslikda so'z o'zlashishi tushunchasining nazariy mohiyatini ochib berish hamda uning zamonaviy til jarayonlaridagi o'rini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

O'zlashma so'zlarning ta'rifi va tasnifi. O'zlashma so'z tilshunoslikda bir tilga mansub leksik birlikning boshqa til tizimiga kirib kelishi va u yerda fonetik, morfologik hamda semantik jihatdan moslashib, faol qo'llanila boshlashi sifatida talqin qilinadi. Leksik o'zlashish til aloqasi jarayonining eng ko'p kuzatiladigan va nisbatan barqaror shakli hisoblanadi.

Haspelmath (2009) o'zlashmani "tilning leksik tizimiga boshqa tilga mansub birliklarning ijtimoiy aloqa natijasida kirib kelishi" deb ta'riflaydi. Thomason va Kaufman (1988) esa o'zlashishni ijtimoiy omillar bilan bog'lab, uning intensivligi va

miqyosi aloqa darajasi bilan belgilanadi, degan fikrni ilgari suradi. Muysken (2000) o'zlashma birliklarni qabul qiluvchi til tizimiga integratsiyalashuv darajasi bo'yicha tasniflab, leksik birliklarning grammatik birliklarga qaraganda osonroq o'zlashishini asoslaydi.

Zamonaviy lingvokulturologik yondashuvda o'zlashma so'z faqat nominativ birlik sifatida emas, balki madaniy kod tashuvchisi sifatida qaraladi. Maslova (2001) til birliklari milliy madaniyatning semantik ifodasi ekanini ta'kidlab, o'zlashmalar ham qabul qiluvchi madaniyatda yangi konnotativ qatlam hosil qilishini qayd etadi. Shu bois o'zlashma so'z tushunchasi lingvistik va madaniy jihatlarni o'z ichiga olgan kompleks hodisa sifatida baholanadi. O'zlashma so'zlarni tasniflashda ularning kirib kelish usuli, moslashuv darajasi va semantik xususiyatlari asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda o'zlashmalar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi: to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar, kalkalar, gibrid o'zlashmalar va internatsionalizmlar.

– **To'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar.** To'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar bu manba til birliklarining qabul qiluvchi tilga bevosita o'tishi va fonetik-morfologik moslashuvdan so'ng faol qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Bunday birliklarda so'zning fonetik shakli ma'lum darajada o'zgarishi mumkin, biroq uning semantik yadrosi asosan saqlanib qoladi. Masalan, *internet*, *marketing*, *blog*, *manager* kabi so'zlar ko'plab tillarda to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar sifatida qo'llanadi. Bu birliklar qabul qiluvchi til fonologik tizimiga moslashtiriladi, biroq ularning asosiy semantik mazmuni saqlanadi. Thomason va Kaufman (1988) ta'kidlashicha, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar ko'pincha madaniy realiyalar, yangi texnologiyalar va xalqaro tushunchalarni ifodalashda yuzaga keladi. Bu jarayon leksik bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji bilan bog'liq.

– **Kalkalar (leksik va semantik).** Kalkalar o'zlashishning bevosita fonetik emas, balki semantik yoki struktural tarjima asosida amalga oshadigan turidir. Kalkalash jarayonida manba til birligi so'zma-so'z tarjima qilinadi yoki mavjud mahalliy so'zga yangi ma'no yuklanadi.

Leksik kalkalar – bu murakkab so'z yoki birikmaning tarkibiy qismlari alohida tarjima qilinishi natijasida hosil bo'lgan birliklardir. Masalan, inglizcha *skyscraper* so'zining “osmono'par bino” shaklida tarjima qilinishi leksik kalkaga misol bo'ladi.

Semantik kalkalar – mavjud mahalliy so'zga manba til birligining yangi ma'nosi yuklanishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, *mouse* so'zining “sichqon” asosiy ma'nosidan tashqari kompyuter qurilmasi ma'nosida qo'llanishi semantik kalkadir.

Haspelmath (2009) kalkalarni til tizimining ichki imkoniyatlari asosida amalga oshiriladigan o'zlashish turi sifatida baholaydi. Bunda fonetik begonalik kuzatilmaydi, biroq semantik transformatsiya yuz beradi.

– **Gibrid o'zlashmalar.** Gibrid o'zlashmalar – bu manba tilga mansub leksik ildiz va qabul qiluvchi tilga xos morfologik affikslarning birikishi natijasida hosil bo'lgan birliklardir. Bu turdagi o'zlashmalar integratsiya jarayonining chuqur

bosqichini ifodalaydi. Masalan, inglizcha *start* soʻziga turkiy tillarda feʼl yasovchi qoʻshimcha qoʻshilib *start-la-* shaklida qoʻllanishi yoki inglizcha otga mahalliy affiks qoʻshilishi gibrid oʻzlashmaga misol boʻladi. Myers-Scotton (1993) bunday birliklarni qabul qiluvchi til grammatik ramkasining ustuvorligini koʻrsatuvchi hodisa sifatida talqin qiladi. Gibrid oʻzlashmalar tilning strukturaviy barqarorligini saqlagan holda tashqi leksik elementlarni integratsiyalash qobiliyatini namoyon etadi. Bu jarayon tilning ochiq tizim ekanini va uning adaptiv xususiyatini koʻrsatadi.

– **Internatsionalizmlar.** Internatsionalizmlar – bu koʻplab tillarda bir xil yoki oʻxshash shakl va maʼnoda qoʻllanadigan leksik birliklardir. Odatda ular ilm-fan, texnologiya, siyosat yoki iqtisodiyot sohalariga tegishli boʻladi. Masalan, *internet*, *demokratiya*, *marketing*, *globalizatsiya* kabi soʻzlar turli tillarda fonetik jihatdan moslashgan holda qoʻllanadi. Crystal (2003) global til konsepsiyasida ingliz tilining internatsional terminologiya shakllanishida yetakchi rol oʻynayotganini taʼkidlaydi. Internatsionalizmlar milliy til tizimiga kirib kelgan boʻlsa-da, ularning semantik yadrosi xalqaro darajada barqaror boʻlib qoladi. Shu bois ular koʻpincha universal konseptlarni ifodalovchi birliklar sifatida talqin qilinadi.

Oʻzlashma soʻzlar qabul qiluvchi til tizimiga kirib kelgach, uning fonetik, morfologik, semantik va madaniy qatlamlari bilan oʻzaro taʼsirga kirishadi. Bu jarayon koʻp bosqichli adaptatsiya mexanizmi orqali amalga oshadi. Zamonaviy tilshunoslikda oʻzlashma birliklarning integratsiyasi til tizimining ichki qonuniyatlari bilan belgilanadigan strukturaviy va funksional jarayon sifatida talqin qilinadi (Thomason & Kaufman, 1988; Haspelmath, 2009). Quyida oʻzlashmalarning asosiy lingvistik xususiyatlari izchil tahlil qilinadi.

Fonetik oʻzlashish – bu manba tilga mansub birliklarning qabul qiluvchi til fonologik tizimiga moslashuvi jarayonidir. Har bir til oʻziga xos fonotaktik qoidalar, boʻgʻin tuzilishi va urgʻu tizimiga ega boʻlganligi sababli oʻzlashma soʻzlar maʼlum darajada fonologik transformatsiyaga uchraydi. Fonologik adaptatsiya jarayonida qabul qiluvchi til manba til tovush tizimini oʻz imkoniyatlari doirasida qayta ishlab chiqadi. Peperkamp (2004) bu jarayonni psixolingvistik adaptatsiya mexanizmi sifatida izohlab, begona fonemalar mahalliy fonologik kategoriyalar orqali qabul qilinishini taʼkidlaydi. Masalan, qabul qiluvchi til tizimida mavjud boʻlmagan fonemalar oʻrniga yaqin tovush ishlatiladi yoki fonemik almashuv yuz beradi. Bu jarayon tilning fonologik barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Fonetik oʻzlashishda epenteza keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Epenteza – bu undoshlar orasiga yoki soʻz oxiriga qoʻshimcha unli qoʻshish orqali talaffuzni yengillashtirish jarayonidir. Masalan, undosh klasterga ega boʻlgan soʻzlar qabul qiluvchi til fonotaktikasiga moslashtiriladi. Tovush almashinuvi esa manba til fonemasining qabul qiluvchi til tizimida mavjud yaqin fonema bilan almashtirilishini anglatadi. Bu holat, ayniqsa, fonemik inventar tarkibi cheklangan tillarda kuzatiladi. Urgʻu moslashuvi ham muhim fonetik jarayon hisoblanadi. Oʻzlashma soʻzlar qabul qiluvchi tilning urgʻu tizimiga



mos ravishda qayta aksentlanadi. Natijada urg'u joylashuvi manba tilnikidan farq qilishi mumkin. Bu jarayon o'zlashma so'zning nutq oqimiga tabiiy integratsiyasini ta'minlaydi.

Morfologik o'zlashish – bu o'zlashma birliklarning qabul qiluvchi til grammatik tizimiga integratsiyalashuvi jarayonidir. Leksik ildiz ko'pincha saqlanib qoladi, biroq u mahalliy affikslar va so'z yasash modellari orqali grammatik tizimga moslashtiriladi. Agglutinativ tillarda o'zlashma birliklar mahalliy qo'shimchalar yordamida faol ishlatiladi. Masalan, inglizcha ildizga mahalliy fe'l yoki ot yasovchi affiks qo'shilishi natijasida gibril birliklar hosil bo'ladi. Myers-Scotton (1993) bu jarayonni matritsa til modeliga asoslanib, qabul qiluvchi til grammatik strukturasi ustuvorligi bilan izohlaydi. Affiksatsiya orqali integratsiya o'zlashma birlikning grammatik kategoriyalar (ko'plik, egalik, kelishik va boshqalar) tizimiga moslashishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, o'zlashma so'zlar ko'pincha qabul qiluvchi tilning so'z yasash modellari asosida yangi birliklar hosil qilishda ishtirok etadi. Bu jarayon til tizimining ichki mahsuldorligini ko'rsatadi. Masalan, o'zlashma ildiz asosida derivatsion affikslar yordamida yangi terminlar yoki fe'llar yasaladi. Muysken (2000) o'zlashma birliklarning strukturaviy moslashuv darajasi ularning til tizimida mustahkamlanish ko'rsatkichi ekanini ta'kidlaydi. Grammatik moslashuv jarayonida o'zlashma birliklar qabul qiluvchi tilning sintaktik va morfologik qoidalariga bo'ysunadi. Masalan, kelishik qo'shimchalari, zamon kategoriyalari yoki ko'plik shakllari mahalliy model asosida qo'llanadi. Bu jarayon o'zlashma so'zning til tizimida to'laqonli funksional birlikka aylanganini ko'rsatadi.

Semantik o'zlashish – bu o'zlashma birlikning ma'no tizimida yuz beradigan transformatsiyalarni anglatadi. O'zlashma so'zlar qabul qiluvchi til madaniy va konseptual tizimi bilan o'zaro ta'sirga kirishib, yangi semantik qatlam hosil qilishi mumkin. Ma'no kengayishi o'zlashma birlikning dastlabki ma'nosidan kengroq semantik maydonni egallashi bilan xarakterlanadi. Ma'no torayishi esa aksincha, ma'lum bir tor soha bilan cheklanishni anglatadi. Haspelmath (2009) bu jarayonni semantik moslashuvning tabiiy bosqichi sifatida izohlaydi. O'zlashma birliklar ko'pincha metaforik yoki metonimik asosda yangi ma'no kasb etadi. Metaforik transformatsiya bir tushunchaning boshqa tushuncha asosida obrazli talqin qilinishini bildiradi, metonimik transformatsiya esa yaqinlik asosida ma'no almashinuvini anglatadi. Bu jarayon o'zlashma so'zning konseptual moslashuvini ta'minlaydi. O'zlashma birliklar vaqt o'tishi bilan konnotativ, ya'ni baholovchi va emotsional semantik qatlam kasb etadi. Maslova (2001) til birliklarining konnotativ semantikasi milliy mentalitet bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. O'zlashma so'zlar ko'pincha zamonaviylik, prestij yoki innovatsiya semalarini ifodalaydi.

Madaniy o'zlashish lingvistik adaptatsiyaning eng murakkab bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda o'zlashma birlik qabul qiluvchi madaniyat konseptual tizimi bilan

uyg'unlashadi. Lingvokulturologiyada "madaniy kod" muayyan jamiyatning tarixiy tajribasi va mentalitetini ifodalovchi semantik tizim sifatida talqin qilinadi (Stepanov, 2004). O'zlashma birlik ushbu kod doirasida yangi ma'no qatlamiga ega bo'ladi. Milliylashtirish jarayoni o'zlashma so'zning fonetik, morfologik va semantik jihatdan mahalliylashuvi hamda mahalliy nutq tizimiga to'liq integratsiyalanishini anglatadi. Bu jarayon o'zlashma birlikning begonalik xususiyatini yo'qotib, milliy leksik fond tarkibiga kirishini ta'minlaydi. Demak, o'zlashma so'zlar qabul qiluvchi jamiyat mentaliteti bilan uyg'unlashib, yangi konnotativ qatlam hosil qiladi. Ba'zi hollarda ular global identifikatsiya yoki ijtimoiy status belgisi sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan madaniy o'zlashish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning murakkab mexanizmini aks ettiradi. Umuman olganda, o'zlashma so'zlarning lingvistik xususiyatlari ko'p sathli adaptatsiya jarayonini o'z ichiga oladi. Fonetik, morfologik va semantik moslashuv bosqichlari madaniy integratsiya bilan yakunlanadi. Bu esa tilning ochiq, dinamik va moslashuvchan tizim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zlashish jarayonining omillari. So'z o'zlashishi jarayoni faqat ichki lingvistik qonuniyatlar bilan emas, balki keng ijtimoiy, psixologik va siyosiy omillar bilan belgilanadi. Zamonaviy tilshunoslikda o'zlashish ko'p omilli (multifactorial) hodisa sifatida talqin qilinadi. Thomason va Kaufman (1988) til o'zgarishlarining asosiy determinantlari ijtimoiy aloqa intensivligi bilan bog'liqligini ta'kidlab, lingvistik struktura emas, balki ijtimoiy sharoit ustuvor omil ekanini ko'rsatadi. Shu bois o'zlashish jarayonini tushuntirishda sotsiolingvistik, psixolingvistik hamda global jarayonlar bilan bog'liq omillarni kompleks tarzda ko'rib chiqish zarur.

Sotsiolingvistik omillar o'zlashish jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Tillar o'rtasidagi aloqa savdo, migratsiya, siyosiy integratsiya, ta'lim tizimi va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali yuzaga keladi. Ijtimoiy kontakt qanchalik kuchli bo'lsa, o'zlashma birliklarning miqdori va intensivligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Prestij omili sotsiolingvistik omillarning eng muhimlaridan biridir. Ma'lum bir til yoki madaniyat ijtimoiy jihatdan nufuzli hisoblangan sharoitda uning leksik birliklari boshqa tillar tomonidan faol o'zlashtiriladi. Crystal (2003) global til fenomenini tahlil qilib, ingliz tilining xalqaro siyosiy va iqtisodiy ustunligi uning leksik ta'sirini kuchaytirganini ta'kidlaydi. Natijada inglizcha birliklar ko'plab tillarda zamonaviylik va innovatsionlik belgisi sifatida qabul qilinadi.

Ijtimoiy identifikatsiya ham o'zlashish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar nutqida yoki professional guruhlarda o'zlashma so'zlardan foydalanish ijtimoiy guruhga mansublikni ifodalash vositasi bo'lishi mumkin. Bu holat o'zlashma birliklarning stilistik va pragmatik funksiyalarini kengaytiradi.

Shuningdek, urbanizatsiya va ta'lim tizimining xalqaro integratsiyasi ham o'zlashish jarayonini tezlashtiradi. Oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va biznes sohalarida

xalqaro terminologiyaning ustunligi o'zlashma so'zlarning barqarorlashuviga olib keladi.

Psixolingvistik omillar o'zlashma birliklarning qabul qilinishi va qayta ishlanish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Peperkamp (2004) o'zlashma so'zlarning fonologik moslashuvini nutqni idrok etish va qayta ishlab chiqarish mexanizmlari bilan bog'laydi. Qabul qiluvchi til so'zlovchisi begona tovush tizimini o'z fonologik kategoriyalari orqali interpretatsiya qiladi.

Kognitiv iqtisod tamoyili ham o'zlashish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Agar yangi tushunchani ifodalash uchun tayyor chet til birligi mavjud bo'lsa, til egasi uni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishga moyil bo'ladi. Bu jarayon kognitiv resurslarni tejash bilan bog'liq.

Shuningdek, bilingvizm va ko'p tillilik sharoitida o'zlashma birliklarning qabul qilinishi osonlashadi. Ikki yoki undan ortiq tilni biluvchi shaxslar leksik almashuvni tezroq amalga oshiradi. Muysken (2000) kod almashish va o'zlashish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib, bilingv nutq muhitida leksik integratsiya faol kechishini ta'kidlaydi.

Psixologik qabul qilish omili ham muhimdir. Ba'zi hollarda chet til birliklari yangilik va zamonaviylik hissini uyg'otadi, bu esa ularning tez tarqalishiga sabab bo'ladi. Boshqa holatlarda esa puristik munosabat ularni rad etishga olib kelishi mumkin. Demak, o'zlashma birliklarning barqarorlashuvi so'zlovchilar ongidagi baholovchi munosabat bilan ham belgilanadi.

Globalizatsiya zamonaviy o'zlashish jarayonining eng kuchli omillaridan biridir. Axborot texnologiyalari, internet va xalqaro media orqali yangi terminologiya tez tarqaladi va ko'plab tillarga kirib boradi. Global iqtisodiyot va ilm-fan sohasida ingliz tilining ustunligi xalqaro terminologik birliklarning keng yoyilishiga olib keladi. Kachru (1985) ingliz tilining dunyo miqyosidagi tarqalishini "uch doira" modeli orqali izohlab, kengayuvchi doira mamlakatlarida ingliz tilining funksional ahamiyati ortib borayotganini ta'kidlaydi. Bu jarayon milliy tillar leksikasida o'zlashmalar sonining ortishiga sabab bo'ladi. Til siyosati ham o'zlashish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayrim davlatlarda puristik siyosat yuritilib, chet so'zlarga mahalliy muqobillar yaratishga intilish kuzatiladi. Boshqa mamlakatlarda esa o'zlashmalarga nisbatan tolerant munosabat shakllangan. Til siyosati o'zlashma birliklarning normativ maqomini, lug'atlarga kiritilishini va rasmiy hujjatlarda qo'llanilishini belgilaydi. Shu bilan birga, global kommunikatsiya jarayonida ayrim o'zlashmalar internatsionalizmlar darajasiga ko'tariladi va ularni cheklash amalda qiyinlashadi. Bu holat tilning ochiq tizim sifatidagi xususiyatini ko'rsatadi.

Shunday qilib aytganda, o'zlashish jarayoni ko'p omilli va murakkab hodisa bo'lib, uning shakllanishida sotsiolingvistik, psixolingvistik hamda global siyosiy-iqtisodiy omillar muhim rol o'ynaydi. Til aloqasi intensivligi, ijtimoiy prestij, kognitiv jarayonlar va til siyosati o'zlashma birliklarning qabul qilinishi hamda



barqarorlashuvini belgilovchi asosiy determinantlar hisoblanadi. Bu esa o'zlashish jarayonini zamonaviy tilshunoslikning kompleks va dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa. Maqolada tilshunoslikda so'z o'zlashishi tushunchasining nazariy mohiyati, uning tasnifi, lingvistik xususiyatlari hamda o'zlashish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, so'z o'zlashishi til taraqqiyotining tabiiy va muqarrar jarayoni bo'lib, u til tizimining ochiqqligi va dinamik xarakterini namoyon etadi. O'zlashma birliklar qabul qiluvchi tilning fonetik, morfologik, semantik va madaniy qatlamlari bilan o'zaro ta'sirga kirishib, ko'p bosqichli adaptatsiya jarayonidan o'tadi.

O'zlashma so'zlar nafaqat leksik bo'shliqni to'ldirish vositasi, balki madaniy konnotatsiya va konseptual transformatsiya omili sifatida ham namoyon bo'ladi. Ularning integratsiyasi qabul qiluvchi tilning ichki strukturaviy qonuniyatlariga bo'ysungan holda amalga oshadi. Shu bilan birga, o'zlashish jarayoni ijtimoiy, psixologik va siyosiy omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, til aloqasi intensivligi va global jarayonlar uning asosiy determinantlari hisoblanadi.

Zamonaviy davrda globalizatsiya va axborot texnologiyalarining rivoji o'zlashma birliklar dinamikasini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Bu esa so'z o'zlashishi masalasini tilshunoslikning dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida yanada chuqurroq o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. (2003). English as a global language (2nd ed.). Cambridge University Press.
2. Haspelmath, M. (2009). Lexical borrowing: Concepts and issues. In J. J. Song (Ed.), The Oxford handbook of linguistic typology (pp. 35–54). Oxford University Press.
3. Kachru, B. B. (1985). Standards, codification and sociolinguistic realism: The English language in the outer circle. In R. Quirk & H. G. Widdowson (Eds.), English in the world: Teaching and learning the language and literatures (pp. 11–36). Cambridge University Press.
4. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya. Akademiya.
5. Muysken, P. (2000). Bilingual speech: A typology of code-mixing. Cambridge University Press.
6. Myers-Scotton, C. (1993). Duelling languages: Grammatical structure in code-switching. Oxford University Press.
7. Peperkamp, S. (2004). A psycholinguistic theory of loanword adaptations. Proceedings of the Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society, 30(1), 323–334.



8. Stepanov, Y. S. (2004). Konstanty: Slovar russkoy kultury. Akademicheskiy Proyekt.
9. Thomason, S. G., & Kaufman, T. (1988). Language contact, creolization, and genetic linguistics. University of California Press.